

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI

Ozod, obod el bag'rida gul-gul yayraymiz

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil
11-avgust
N:32
(66677)

SHIRIN XOTIRAGA AYLANGAN KUN

Yozning issiq kunlarida quyoshning ayovsiz qizdirishiga qaramay, olis manzil sari yo'l oldik. Yo'l uzoq, ammo tekis va ravon edi. Xayolimizni esa bir necha soatdan so'ng bo'lib o'tadigan uchrashuv band etgandi. Shu sababli, yo'lning olisligini ham sezmay, Sirdaryo viloyatiga go'yo «uchib» kirib bordik.

2-bet

Sirdaryo tumani lobar qizlarning jilmayishida yurt zavqi bor.

Guliston shahridagi 9-maktabning 3-sinf o'quvchilari opa-singil O'g'iloy va Xayriniso Abdullajonovalar «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qishadi.



O'quvchi maktabga tayyormi? Bu savolga hamma har xil javob beradi.

Kimdir oromgohda, yana kimdir bobo-buvisinikida, yana birov uyda ota-onasiga qarashib, dam olib, mazmunli hordiq

chiqaryapti. Uch oylik ta'til o'tib borar ekan, uning so'nggi avgust oyida

ko'pchilik otalar va hatto ustoz-onalar, o'quvchilar ham yangi

o'quv yiliga tayyorgarlikni boshlab yuboradilar. O'quv yili davomida kerak

bo'ladigan o'quv qurollaridan tortib, darsliklar, ham taxt qilib qo'ya-

maktab formalarini o'quvchilarning bo'ladi. Lekin shun-

dilar. Albatta bunday o'qishi, ishi «besh» bo'ladiki, nafaqat

day hollar ham o'qish davomida hali

o'quv yili boshida, balki yo'q o'quvchilar

daftari, hali ruchkasi topiladi. Bu bahonami yoki «Ninachi va chumoli»

ahvolimi? Esingizdami, ninachi va chumoli voqeasidagi ninachi yoz bo'yi

soz chalib qo'shiq aytadi, qish kelganda esa mehnat qilgan chumoliga yalinadi.

Ninachining holiga tushmaslik uchun fursatni qo'ldan bermaslik, o'tayotgan

kunlardan unumli foydalanish lozim.

NINACHINING HOLIGA TUSHMA?

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,
Toshkentdagi 227-maktabning
rus tili o'qituvchisi

ENG, ENG, ENG...

1. Eng chuqur okean – Tinch okeani.
2. Eng ko'p ovqat yeydigan hasharot – ninachi.
3. Eng ko'p til bilgan tulshunos olim – Yevgeniy Polivanov.
4. Dunyodagi eng mitti kuchuk Meksikada bo'lib, uning bo'yi atigi 15 santimetr.

5. Dunyodagi eng sayroqi qush bulbul ekan. U ikki mingdan ziyod ohangda sayraydi.

6. Eng qadimgi san'at bu – sirk.
7. Dunyodagi eng go'zal qo'shiq – alla.
8. Eng tez o'sadigan daraxt – pavloniya.

Pavloniya ko'chatlari bir mavsumda 7 metr balandlikka yetadi.

9. Eng katta gerbariy to'plamiga Parij muzeyi ega. Muzey to'plamida 6 200000 ta eksponat mavjud.

10. Eng katta botanika bog'i Londonda joylashgan. Uning maydoni 110 gektar va 24 ming yaqin turli o'simliklar mavjud.

Jamshid NABIYEV

YASHIL CHIROQ G'OLIBLARI

Maktabimiz Pushkin nomi bilan atalib, Xazorasp tuman markazida joylashgan. Garchi u ko'rimsizroq bo'lsa-da, ustozlarimizning mehri, darsga qiziqira olishi bilan go'zaldir. Ayniqsa, fizika o'qituvchimiz Samandarovning darsida vaqt qanday o'tganini sezmay qolamiz. Barcha darslar qiziqarli o'tadi. Sinf rahbarimiz Zebiniso Karimovaning bizlarga bo'lgan e'tibori maktabga bo'lgan mehrimizni yana-da oshiradi.

Botir Rahimovning sa'y-harakati va biz o'quvchilarga yaratib berayotgan

imkoniyatlari tufayli tumanlararo bo'layotgan «Quvnoqlar va zukkolar»,

«Yashil chiroq» ko'rik-tanlovida faxrli o'rnlarni egallab kelyapmiz. Yaqinda

26-28-iyun kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida

bo'lib o'tgan «Yashil chiroq» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli

birinchi o'rinni egallab keldik. Bizning bu o'rinni egallashimizda Gulbahor Jumaboyeva,



G'afur Otamurodov, Ravshan Masharipovlarning xizmatlari juda katta. Hozircha

maktabimiz uchun kelajakda O'zbekiston nomini dunyoga tanitishga astoydil harakat

qilamiz. Men o'z maktabim bilan faxrlanaman.

Maktabim – mening faxrim!

Amirbek ODAMBOYEV,
Xazorasp tumanidagi
1-maktabning
7-sinf o'quvchisi



SHIRIN XOTIRAGA AYLANGAN KUN

– Xush kelibsiz! – deya kutib olgan mezbonimiz o'zlarini Sirdaryo tumani ma'naviyat va ma'rifat kengashi mas'ul kotibi Akbarali Mirzaahmedov deb tanishtirdilar. Akbarali aka nimadandir tashvishlanayotgani ularning so'z ifodasidan yaqqol sezilib turardi. Ular biroz iymanib:

– Sirdaryo pedagogika kolleji talabarlari hamda tuman shifoxonasi hamshiralari bugungi uchrashuvga barvaqt yetib kelishgan. Ular xalqimiz sevgan aktyor Uchqun Tillayevni hamda «Tong yulduzi» gazetasi xodimlarini bir olam quvonch bilan kutishmoqda. Hattoki, sizlarga o'zlarini qiziqtirgan bir qancha savollarini ham tayyorlab qo'yishgan. Lekin elektr tokining yo'qligi bizga biroz muammo bo'lyapti...

Akbarali akaning xavotirlanishi uchrashuv boshlangandan so'ng o'z-o'zidan tarqab ketdi. Faollar zalida yig'ilganlar soni ko'p bo'lsa-da, mezbonlar mehmonlarni jon qulog'i bilan tinglayotgan edilar. Shuning uchun ham mikrofonning yo'qligi uchrashuvning fayzli o'tayotganiga sabab bo'la olmas edi. Davrada asosiy mavzu, ya'ni yurtimiz mustaqilligi haqida gap borar ekan, suhbat beixtiyor savol-javoblarga ulanib ketdi.

Ketma-ket berilayotgan savollardan kolleji talabalarining bilimdonliklariga qoyil qoldik. Hozirjavob talabalar savol berishda ham, javob berishda ham o'zlarining topqirliklarini namoyon qildilar. Kollejning axborot-texnologiyalari yo'nalishi 1-kurs talabasi Dilafro'z Xo'jamberdiyeva hamda tuman bolalar poliklinikasi hamshirasi Bahri Isayeva, Muhabbat Abdunabiyeva topqirliklari evaziga «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri tomonidan ktob va gazetalar bilan taqdirlandi.

Sovg'alar o'z egalariga topshirilganidan so'ng, navbatdagi savollar O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan artist Uchqun Tillayevga berila boshlandi. «Alpomish» badiiy filmida Qorajon rolini ijro etgan aktyor muxlislari tomonidan berilgan savollarga quyidagicha javob berdi:

– *Alpomishning do'sti Qorajon rolini o'ynash menga oson bo'lmagan. Film Surxondaryo viloyatining Boysun tog'larida suratga olingan. Men uchun eng og'ir bo'lgan lavha Alpomishning g'animlarini yiqitish bo'lgan edi. Surxonning alp o'g'lonlari g'ururi osmondan-da baland ekan. Filmga suratga olinayotgan bo'lsa-da, polvonlar menga mag'lub bo'lishga ko'nmadilar. Ularga bu kino ekanligini tushuntirsak ham, kuraklari yerga tegishini xohlamadilar. Shunda polvonlarni chetga olib chiqib: «Avval hammangiz birma-bir meni yiqitasiz, so'ngra film uchun menga yiqilib berasiz», deya ularni zo'rg'a ko'ndirdim. Zabardast polvonlarning osmonga ko'tarib yerga urishidan zo'rg'a o'zimga keldim. Keyin ularni yolg'ondan «yiqitishimni» kadrda ola boshladilar. Ana shunday qiyinchiliklar evaziga ushbu film suratga olingan.*

Darhaqiqat, yurtimizning Alpomishdek, Qorajondek mard o'g'lonlari juda ko'p. Xuddi shunday Vatan va xalq ozodligi uchun jonini fido qilgan, milliy istiqlol bir umrlik orzusi bo'lgan Usmon Nosir rolini teatrdan sevib ijro etishini Uchqun Tillayev faxr bilan aytib o'tdi. Aktyor aytganidek, bugungi nurafshon kunlarni, Vatanimiz ozodligini ko'rish qatag'on qurbonlariga nasib etmadi. Ularning orzulari armonga aylandi. Bunday insonlarni unutib bo'lmaganidek, Vatanimiz mustaqilligini ko'rish siz-u bizga nasib etganiga shukronalar qilib yashashimiz kerakligini talabalar yaxshi anglab yetishgandi.

Uchrashuv so'nggida barcha esdalik uchun suratga tushdi. Zero, ko'ngildagidek o'tgan uchrashuv suratlar orqali shirin xotiraga aylanishga ulgurgan edi.



SHE'RIYATNING SIRLI GULSHANI



Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi Karim bobo qishlog'ida tug'ilib, uzoq yillar bolalarga tarix fanidan saboq bergan Turg'unboy Parpi o'g'li Matlabiy bugun yetmish yoshga to'ldi. U umr bo'yi ezgulikka intilib yashadi.

Bolajonlarga saboq berish bilan bir qatorda, yurtning go'zal manzaralarini she'rga solib kuylashdan tolmadi. Turg'unboy Parpi o'g'li Matlabiyning rang-barang satrlarini o'qib, bolalar kabi qalbi beg'ubor otaxonga

havasimiz ortdi.

Aziz o'quvchilar, siz ham Turg'unboy otaning yaqindagina bosmadan chiqqan «Jilmayib yursa...» she'riy to'plamini qo'lingizga olib, albatta she'riyatning sirli gulshanida sayr etasiz, degan umiddamiz. Biz esa Turg'unboy Parpi o'g'li Matlabiy bobongizga she'r yozib charchamang, deymiz.

AXTAMQULI

ELDOR LOFGCHI

– Oy tushibdi buloqqa,
– deydi Eldor entikib.
Oyisi lol qoladi,
Ko'zlariga ko'z tikib.



– Osmonda-ku oy, o'g'lim,
Yerga tushmas hech qachon.
– Menimcha, oy men kabi
Chanqagandir, oyijon.

QO'LI
YO'Q-KU!


Onasi der Sherbekka:
– Do'ppingni kiyib yurgin,
Oftob urib ketmasin,
Soyaga o'tib turgin.
Sherbek hayron bo'lgancha,
Shunday savolni berar:
– Oftobning qo'li yo'q-ku,
Oyi, u qanday urar?

ZIYO MANBAI

– Hoy ukajon, hoy Tohir,
Insofing bormi, axir?
Kutubxonadan olding,
Meni ne kuyga solding?!

Siyoh surtding yuzimga,
O'xshamayman o'zimga.
Varaqalarim yirtilgan,
Muqovam kir, titilgan.

Menmi ziyo manbai,
Tohir, insofing bormi?!



ITGA O'XSHAGAN BO'RI

Darsga qatnashmay To'lqin,
Zooparkda qolib ketdi.
Rasm solish paytida
Shuning jazosi tutdi.

Bolalar bo'ri rasmin
Chizishdi ko'rganidek.
To'lqin ham chizar asta,
Tasavvur qilganidek.

Itga o'xshar bo'risi,
Quloqlari qirqilgan.
Dumi kalta, go'yoki,
Kimdir ataylab yulgan.



O'qituvchi tanbehin
Eshitgach, qizarib u
Der: – Muallim, bo'ring
Itga o'xshagani bu!

Turg'unboy Parpi o'g'li Matlabiy

Boshi o'tgan sonda

Yava orollarida bir sholikor bilan tanishgan edim. Ma'lumki, sholi yer yuzida eng ko'p iste'mol qilinadigan ozuqa. Indoneziya 17500 oroldan iborat, 500 dan ortiq millat va elatlar yashovchi olamdagi eng katta islomiy davlat. Dehqonning hikoyasiga qarab, Indoneziyaning jahonshumul taraqqiyotining sabablaridan birini anglab yetdim. Undan kundalik turmushi haqida so'raganimda, shunday degandi:

Badi'a



UMR O'TAR...

– Men 6 gektarga yaqin yerga sholi ekanman. Har kunlik rejam bor. Aytaylik, bugun 30 sotix yerni begona o'tlardan tozalashni rejalashtirdim. Lekin peshinga borib yalqovlik bilan uxlab qoldim. Bu menga bahona bo'lolmaydi. Men kechgacha ishni yakunlab qo'yaman. Aytaylik, shomda biror joyga borsam, xuftonda kelib rejamni yakunlab qo'yaman. Agar shomda sillam qurib holdan toysam, hatto burnimdan qon otilib ketsa ham bugungi ishni ertaga qo'ymayman. Emaklab bo'lsa ham, nafas ololmay qolsam ham, tanimda to qatra qon bor ekan, bugungi ishni bugun bajaraman. Men bu hikoyani keltirib, hayot faqat mehnatdan iborat demoqchi emasman. Hayotdagi har bir ulug' maqsadga erishish katta mehnat evaziga ro'y berishini, buning uchun izehil va tinimsiz mehnat zarurligini ta'kidlamoqchiman, xolos.

Kolumbiyalik yozuvchi,
«Nobel» mukofoti laureati

Gabriel Garsiya Markes «Yuz yil tanholikda» romanini yozishdan oldin uy xarajatlariga sarflash uchun mashinasini sotib, pullarni xotiniga topshiradi va o'z ijodxonasiga kirib ketadi. Xonaning eshigini tambalab, kosa-tovoq uchun tuynuk qoldiradi. Xonaning eshigi bir yarim yildan keyin ochiladi. Bu muddat oralig'ida u hech kim bilan gaplashmaydi, ko'rishmaydi, tashqi muhitdan uziladi. Aksini qarangki, bir yarim yil tanholikda yozilgan asar bir yarim yilda yuzdan ortiq tilda dunyoni zabt etadi, sevimli asarga aylanadi.

O'g'lim, sportda nafasning kuchini, maqsad sari yo'naltirishni o'rgatishadi. Sen ham har bir olgan nafasingni aniq maqsad sari yo'naltira bilsang, albatta ulkan g'alabalarga erishasan. Hayotingni har bir daqiqasi bir maqsad sari yo'naltirilgan ekan, mehnatkashlik zahmatidan bo'yin tovlamas ekansan, ishonchim komilki, omadli, baxtli va buyuk inson bo'lasan! Pala-partish ishlashda baraka bo'lmaydi. Aniq maqsadni bilmaslik, parokandalikka olib keladi. Hayot esa o'tib ketadi. O'z hayotini rejalab olmagan odam, maqsadi sizdir. U nima uchun yashayotganini ham bilmaydi. Unga umrining qadri yo'q.

Hayotni qadrlamaslik esa jinoyat. Umri qadrlamaslik qabihlik.

Bilaman, sen ulkan qobiliyat egasidan va albatta o'z oldingga qo'ygan maqsadga erishasan. Lekin bu maqsad qaysidir oliygohni tugatish yoki biror qizni yuragini zabt etishdangina iborat bo'lmasligi kerak.

Seni hatto mahalliy xonanda yoyinki sakkizinchi darajali kinoaktyor bo'lishingni istamayman. Kommunikatsiya rivojlangan sari yer shari mamlakatlari yaqinlashib borayapti. Bugun o'zbeklar ichida «Nobel» mukofotiga nomzodlar bor. «Oskar» mukofotiga munosib aktyorlarimiz, Gollivudda rol o'ynashni maqsad qilgan iste'dodlarmiz, Bollivud bilan ijodiy hamkorlik qilayotgan iqtidorli rejissyorlarimiz bor. Bunday muvaffaqiyatga erishish, kechgacha xomxayol edi, bugun voqelikka aylanayapti. Ertaga u yuz beradi. Reja har xil bo'ladi. Kunlik reja, oylik reja, yillik reja va bir umrlik reja. Ularni tuzishda erinmaslik kerak. Ba'zan istak bor-u, imkon yo'q, deyishadi. Xalqimizda «Izlagan imkon topadi», degan naql bor. A.Oripovning «Imkondan ortiqroq imkonni kutma», degan satrlari har bir fursatning ichida, siz izlagan imkon yotgani haqidadir.

Davomi bor Muhammad ISMOIL

«Olimpiya yozi» – «Tong yulduzi» bilan

OMAD YOR BO'LSIN!

Mana, uch kundirki «Pekin – 2008» Olimpiada o'yinlari qizg'in kurashlar ostida o'tmoqda. «Yagona olam – yagona orzu!» shiori ostida o'tayotgan bahslarda dunyoning ikki yuz besh mamlakatidan kelgan yuzlab sportchilar Olimpiada medallari uchun bellashmoqdalar. Mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilishga bel bog'lagan sportchilarimiz ham zimmalariga yuklangan sharaflari vazifalarni bajarish yo'lida bor imkoniyatlarini ishga solmoqdalar.



Nastya SVESHNIKOVA, nayza uloqtiruvchi: – Mening yoshim o'n beshda. Hammadan ham ko'proq men hayajonlanayotgan bo'lsam kerak. Shunga qaramasdan, yuqori natijalar ko'rsatishga harakat qilaman.

Uyg'un SIDDIQOV, boks bo'yicha Olimpiada terma jamoasi murabbiylaridan biri: – Olimpiada o'yinlarida yuqori natija ko'rsatish uchun puxta hozirlik ko'rdik. Kurashlar jarayonida harakatlarimiz o'z samarasini ko'rsatadi, degan umiddaman.



Bobur SHOKIRJONOV, yengil atletika sovrindori: – Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish har bir sportchining orzusi. Bu baxt menga 17 yoshimda nasib etdi.




Oygul OMONMURODOVA, tennischisi: – Aynan sport sohasiga yo'naltirganlari uchun men oila a'zolarimdan behad mamnunman. Barcha bolalarga esa sport bilan do'stlashishlarini maslahat beraman.



Sportchilarimizni Xitoyga kuzatish marosimida Respublika olimpiya zahiralari sport maktabining yosh futbolchilari ham ishtirok etishdi. Bir kun kelib Olimpiada o'yinlarida ishtirok etish ularning yagona orzulari.

Olimpiada o'yinlari qanday o'tadi, buni vaqt ko'rsatadi. Ammo bir narsa aniqki, butun xalqimiz sportchilarimizni olqishlab turishibdi. Ular esa bunga javoban g'alaba bilan qaytishlariga ishonamiz.

Flora FAXRUTDIN, Yusuf FAYZULLO



QUCHOG'INGGA QAYTAMIZ, XIVA!

bobolarimiz siymosi, bebaho ishlari ko'z o'ngimizda gavdalanib turdi. Ayniqsa, Ichon va Dishon qal'alar, ko'hna Ark, Toshhovli, Sherg'ozixon madrasasi, Oq masjidni ko'rib, u yerlarga qo'yilgan tarixiy ko'rgazmalar bilan tanishib, bobolarimizning sha'niga tasannolar aytdik. Tarixi ming yillardan uzoq Juma jome masjidi, osmonga tutashib ketgan, betakror go'zalligi bilan dunyo ahlini hayratga solayotgan Islomxo'ja minorasi-yu o'zida uzoq tarixni sir saqlab kelayotgan kaltaminor singari yodgorliklarni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Xivaga tashrif buyurgan har bir mehmon avvalo buyuk bobokalonimiz Pahlavon Mahmud (Puryoyvaliy) majmuasiga qadam ranjida etib, bu qutlug' qadamjoni ziyorat aylaydi. Biz ham shunday qildik. Avliyo va mutafakkir shoirning maqbarasini katta qiziqish bilan ko'rdik. U kishi oddiy po'stin-



do'z usta bo'lishiga qaramasdan, Hindiston va Erongacha dong'i ketgan mashhur yengilmas pahlavondir. Yoshligidan adabiyotga ixlos qo'yib, go'zal she'r va ruboiylar yozib taniqli shoirga, xalqning e'zozli mutafakkiriga aylangan. 1701-yilda Shohniyo'zxon tomonidan barpo etilgan bu tarixiy maqbara nihoyatda go'zal va noyobdir. Mustaqillikdan so'ng, Xiva o'zining boy qiyofasini yana-da takomillashtirdi va dunyoga taniqli shaharlardan biriga aylandi. O'zining 2500 yilligini keng nishonladi. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari buyuk allomalarni voyaga yetkazgan Ma'mun akademiyasining 1000 yilligini butun dunyo ahli bayram qildi.

Bizga tarixiy shaharda yo'l boshchilik qilgan taniqli murabbiy Gulira'no opamiz, O'zbekiston Qahramoni Vera Pakday mehribon ustoz-muallim boshqarayotgan 20-Bolalar uyi haqida ham ko'p qiziqarli voqealarni so'zlab berdi.

Xivani bir-ikki kunda tomosha qilish aslo mumkin emas ekan. Bu shaharda bir necha kunlar qolib, biladigan odamlar uning ko'hna obidalari, bugungi hayoti bilan yaqindan tanishib chiqishi kerak ekan. Biz toshkentlik o'quvchilar Jaloliddin, Xadichabonu va men bu shaharda bir kun bo'ldik, xolos. Bir-biridan nafis va go'zal gilam to'qiyotgan chevarlar, naqqoshlar, misgarlar, kulolchilarning sayyohlarni lol qoldiruvchi javohirlari bilan yaqindan tanisha olmadik.

– Bir kunmas bir kun biz albatta quchog'ingga qaytamiz, Xiva!

NURISLOM,
Toshkentdagi 97-maktab
o'quvchisi.
Muallif olgan suratlar



BU FIKRGA QO'SHILMAYMAN

Xalqimizda, o'rmonga o't ketsa, ho'l-u quruq barobar yonadi, degan naql bor. Bu naqlni bejiz yodga olganim yo'q. Keyingi paytlarda farzandlarimiz kitob o'qimay qo'yishdi, degan fikrlar tez-tez quloqqa chalinadigan bo'lib qoldi. Yoshlarimiz xususida bunday umumiy xulosaga kelishdan avval o'zimizga bir necha savol bilan murojaat qilib ko'rsak, o'rinli bo'lardi, nazarimda. Xo'sh, farzandimizning kitobga mehr qo'yishi uchun biz nima qildik? Ularga oxirgi marta kitob sovg'a qilgan kunimizni yoki qo'lidan yetaklab biror kutubxonaga olib borganimizni eslay olamizmi? Maktabda yilda bir bor gazeta va jurnallar obunasi uchun yig'iladigan arzimastagina pulni ham ayrimlarimiz og'rinib berishimizni tan olaylik. Masalaning yana bir jihatiga e'tibor qaratsak: farzandlarimizning qiziqib o'qishlari uchun yaxshi, bolalarbop asarlar yaratilyaptimi? Sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning fikrlariga quloq tutaylik-chi: «Shu kunlarda bolalar adabiyotiga, ayniqsa, nasr janriga juda katta ehtiyoj sezilyapti. Yaratilayotgan she'riy asarlar ham yosh o'quvchining ma'naviyatga bo'lgan talabini qoniqtirarli darajada emas, nasr janrida deyarli asarlar yaratilmayapti...» Shunday ekan, farzandlarimizni kitob o'qimaslikda ayblashimiz o'rinli bo'larmikin?

Keling, aziz gazetxon, yana kitobxonlik xususida fikrlashaylik:

Bolaligimdan kitobga mehr qo'rganman. Bunda balki uzoq yillardan buyon kutubxonachilik kasbini e'zozlab kelayotgan buvijonimning ta'siri bordir. Ular: «Kitob insonni ma'naviy barkamollikka yetaklaydi», deya ko'p ta'kidlaydilar. Lekin, nazarimda, kechagi kitobxon bugun kutubxonadan biroz uzoqlashgandek. Ko'pchilik bunga internet va kompyuterlarni sabab qilsa, ayrimlar, internet saytlarida ham kitob o'qish mumkin-ku, deya fikr bildirishadi.

Xo'sh, ma'naviyat o'chog'i sanalmish kutubxonalarimizda bugun ahvol qanday?

Bu savolga javob topish maqsadida Toshkent qurilish kommunal kasb-hunar kolleji kutubxonasi rahbari Marziya opa Azimova hamda kutubxonachi Gulnoza opa Karimova bilan suhbatlashdik.



Marziya opa bizga quyidagilarni gapirib berdilar: – Kutubxonamiz 1952-yilda tashkil topgan bo'lib, avvallari juda kichik, kitoblarimiz soni ham juda oz edi. Keyinchalik nodir kitoblarimiz soni ortdi. Hozirgi kunda Axborot resurs markazi (ARM)ga aylantirilgan kutubxonamizda 50.000 dan ziyod kitoblar mavjud. Shuningdek, o'nta kompyuterimiz internet tarmog'iga ulangan bo'lib, kutubxonamizda mavjud kitoblar, darslik va qo'llanmalar kompyuter sahifalarimizga kiritilgan. Kollejimiz

talabalari bu kitoblarni internet sahifalaridan bemalol topib, kompyuterda o'qishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi entiklopediyasi, Koreya Respublikasidan keltirilgan kompyuter grafikasi va qurilish sohasi mutaxassisligiga oid talaygina kitoblarimiz mavjud. Nusxa ko'chirish apparati, tizimli va alfavitli katalogim ham ular ixtiyorida.

– Bugungi yoshlar kitob o'qimay qo'yishdi, degan fikrga qanday qaraysiz? Kutubxonaga kiradiganlari ham faqat darsliklar yoki o'quv qo'llanmalarini so'rab kirishsa kerak-a?

– Men bu fikrga aslo qo'shilmayman.

Chunki boshqa kutubxonalarni bilmadim-u, bizning nurxonamiz doimo o'quvchilar bilan gavjum. Ba'zan ular shu darajada ko'payib ketishadiki, xizmat ko'rsatishga ham ulgur olmay qolamiz. «Navoiy lirikasi asrlar osha yashar», «Toshkent 2200 yoshda», «Milliy mafkura millatni birlashtirish bayrog'idir» kabi ko'rgazmalarimizni zo'r qiziqish bilan tomosha qilishadi. 20 dan ziyod gazeta va jurnallarga obuna bo'lganmiz. Ular ham ARMmizning internet sahifalariga joylanadi. Talabalarimiz kompyuter orqali hafta yangiliklaridan boxabar bo'lishadi.

– Qiziqarli uchrashuvlar ham o'tkaziladimi?

– Albatta, taniqli yozuvchi va shoirlar kutubxonamizda tez-tez mehmon bo'lib turishadi. Yaqinda Erkin Vohidov bilan uchrashuv bo'lgan kuni zalimizga o'quvchilar sig'may ketishdi. Sevimli shoirimiz Jumaniyoz Jabborov uchrashuv so'nggida kutubxonamizga 50 dan ziyod kitob sovg'a qildilar... Kutubxona qadrdon uyimdek, kitobxonlar esa o'z farzandlarimdek bo'lib qolgan, – dedilar 24 yildan buyon mana shu nurl maskanda mehnat qilib kelayotgan Marziya opa bizni kuzatayotib. – Keyingi safar kelganingizda, kutubxonamizni tanimay qolasiz...

Biz opaning so'zlariga ishonдик. Negaki, zahmatkash, fidoiy insonlar hech bir gapni shunchaki gapirishmaydi.

Shahnoza G'ANIYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
116-maktabning 8-sinf o'quvchisi




DONISHMAND NIMA, OYI?

Bir tanishim arz qildi. Uning fikricha, bugungi kunda nashriyotlardan bosilib chiqayotgan ertaklar go'yo kattalar uchun yozilayotgan emish. Yetti yoshli qizi ertak o'qib, uni bir dunyo savolga ko'mib tashlabdi. «Donishmand nima, oyi?» deya savol berib, holi-joniga qo'ymabdi.

– Ertakda bunday so'z qo'llanilishi noo'rin, chunki kichkintoylar uning ma'nosini tushunishmaydi, – deya xulosa chiqardi tanishim.

Bu savol qiyin ekan, degan xayolga bordim. Vaholanki, bundan yuz yil muqaddam yozilgan ertaklarda ham «keksa bir donishmand», «nuroniy qariya» kabi nisbatlar qo'llanilgan. O'zbek xalqi bolajon xalq. Biroq, shunday bo'lsa-da, ayrim ota-onalarning farzandlari oddiygina savol bilan murojaat qilganda, hayratlanishadi. Ota-ona bolaning birinchi ustoz. U ota-onasining fikrlarini qulog'iga quyib oladi. Bu tarbiyaning bosh mezonini hisoblanadi. Shunday ekan, har bir ota-ona farzandiga to'g'ri tarbiya berish bilan bir qatorda bolani aniq va tiniq fikrlashga o'rgatishi lozim.

NAFISA



«NABIRAMNI YORDAMGA CHAQIRDIM...»

Men Chirchiq shahar sanoat kasb-hunar kolleji qoshidagi axborot resurs markazining 2-filialida kutubxonachi bo'lib ishlayman. Shundanmi, jajji bolajonlar meni ko'rishsa, «Kitobchi opa kelyaptilar», deya yonimga oshiqishadi.

Markazimizda 14 ming 300 dona kitob bo'lib, 500 dan ziyod o'g'il-qizlar a'zo bo'lishgan. O'quvchilarimiz 12 millat vakillaridan iborat.

Yaqinda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi respublikamiz nashriyotlarida chop etilgan 379 nomdagi kitoblarni markazimizga sovg'a qilishdi. Bolajonlarimiz «Uch doston», «Alpomish», «Zumrad va Qimmat» kabi kitoblarni qo'lma-qo'l qilib o'qishyapti.

Yozgi ta'til kunlarida ishsizlikdan zerikib qolsam kerak, deb o'ylagandim. Aksincha, qo'lim-qo'limga tegmayapti, o'quvchilarim biram ko'p-ki! Hatto nabiram Maftunaxonni ham yordamga chaqirib turibman. Shu tariqa uning murg'akkina qalbida ham kitobga mehr uyg'ondi.

«Bolalar kitob o'qimay qo'yishdi», deyidiganlar bizning markazimizga bir kelishsin. O'quvchilarimiz bu yerdagi kitoblarning deyarli hammasini o'qib bo'lishdi, hisobi. Qaniydi, homiy tashkilotlar, serhimmat insonlar bizga ko'plab kitoblar sovg'a qilishsa... Axir farzandlarimiz ma'naviyatini boyitishdan-da ortiqroq xayrli ish bormi dunyoda?!

Muhayyo SHODMONQULOVA



ZAMONBEKA tayyorladi



Po'lat MO'MIN

ISTIQLOLIM

Istiqlolim, istiqololim,
Kulib turgan baxt timsolim.
Istiqlolim, istiqololim,
Yaxshilikdir o'y-xayolim,
Istiqlolim, o'y-xayolim.

Istiqlolim, istiqololim,
So'zlashganda tilda bolim.
Istiqlolim, istiqololim,
Yegan nonim eng halolim,
Istiqlolim, tilda bolim.

Istiqlolim, istiqololim,
O'zgalarga yo'q malolim.
Istiqlolim, istiqololim,
Yaxshilikdir o'y-xayolim,
Istiqlolim, o'y-xayolim.

Istiqlolim, istiqololim,
Barq urmoqda gul-niholim.
Istiqlolim, istiqololim,
O'zbekiston o'z iqbolim,
Istiqlolim, o'z iqbolim.

Normurod NARZULLAYEV

MEN G'UNCHAMAN

Men g'unchaman, bahor bo'lgim keladi,
Men shabnamman, nahor bo'lgim keladi.
Men zarraman, olam bo'lgim keladi,
Men bolaman, odam bo'lgim keladi.

Naqorat:

Yurtlar ko'pdir bir-biridan ziyoda, Men jilg'aman, ummon-bo'lgim keladi,
O'zbekiston -go'zal diyori dunyoda. Men yog'duman, cho'lpon bo'lgim keladi.
Hur o'lkamda baxtli yashash tilagim, Men uchqunman, bo'lgim kelar alanga,
Istiqlolni qutlar jajji yuragim. Farzand bo'lib yaray aziz Vatanga!

Qambar OTA

O'ZBEKISTON
ONAJON

Yer-osmonning orasi,
Olamning eng sarasi,
Avlod meros Vatanim -
Qadri baland bo'stonim.

Oy husnda yetolmas,
Quyosh shaydo, ketolmas,
Ko'k toqingda yulduzlar,
Baxt taratar kunduzlar.

Saxovatli, fidokor,
Dunyoda eng baxtiyor.
Sodiqlikda bolangga
Tanilgansan olamga.



Bir yoningda Jayhundir,
Bir yoningda Sayhundir.
Mehringdir nur tarami,
Bag'ring dillar oromi.
Himmatli hayotga teng,
Insonparvar, bag'ri keng.
Onajon O'zbekiston,
Jonajon O'zbekiston.

BOQ, NAQADAR
GO'ZAL BU OLAM!

Oppoq tong otmoqda,
Uyg'on, bolajon!
Yangi tong -subhidam -
o'zgacha olam.
Seni qutlamoqda
har maysa yaproq,
quyosh, osmon, borliq
va zarrin tuproq.

Ochiq derazadan
qo'llarin cho'zib,
shamol silamoqda
qo'lchalarini.
Har maysa yaproqqa
zarhal zeb berib,
Kuz kezib yuribdi
ko'chalarini.

Uyg'on!
Quyosh nurlarini
etadi jilva.
Sen ham tabassumga
to'ldir olamni.
Axir qutlamoqda
yangi kun bilan,
Qumrilar to'ldirib
ayvonni-tomni.

Bir qo'shiq...
Bu qo'shiq vatan haqida
Qushlar lahjasida
hammasi sho'xchan.
Umring lahzasidek
barchasi go'zal...
Uyg'on, bolajon!

VATAN deb
Ko'zing och,
qutlug' et tongni.
Tuproqni tavof et,
Suvni qil aziz...
Shu buyuk xalq uchun
Ildam odimla!
Shu bir VATAN uchun
qoldir ulkan iz!

Halizamon maktab
ochar quchog'in.
Muallim yuzida
Aks etar mehr...
Mehr yuksaltirar
Bani odamni.
Gulga qiyos axir
Bolalik chog'i
Bir dasta gul bilan
siyla olamni.
Uyg'on, bolajon.
VATAN bu onam de,
Ulug'vor bir zot.
Bu ikki buyuk so'z -
Bu ikki xilqat -
haqiqat!
Quyosh bosh ko'targan
allaqachonlar.
Qushlar tark etgan
in-uychalarini.
Har maysa yaproqqa
zarhal zeb berib
Kuz kezib yuribdi
ko'chalarini.
Boq, bu olam
naqadar go'zal...

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda

Garri tayoqdan o'zini chetga tortib,
yo'lakka ketdi. Sholcha ustida Vernon
amaking Uayt orolida dam
olayotgan Marj ismli singlisidan
kelgan otkritka, jigarrang xatjild,
ichida hoynahoy hisob varag'i bo'lsa
kerak va Garriga atalgan xat yotardi.

Garri xatjildni olib sinchiklab ko'ra
boshladi, uning ich-ichidan qaltiroq
kelar va vujudida hamma narsa xuddi
kamonga tortilgan ipdek tarang-
lashgandi. Unga umrida hech kim
hech qachon maktub yozmagandi.
Unga kim ham xat yozishi mumkin?
Uning do'stlari bo'lmasa, boshqa
qarindoshlari bo'lmasa, u hatto
kutubxonaga ham a'zo emaski, u
yerdan kitoblarni zudlik bilan
qaytarishni talab etuvchi qo'polroq
xat kelishini kutsa. Lekin u hozir


qo'lida maktub ushlab turar va unda nafaqat uning ismi, balki
yashash manzili ham yozilgandi. Shu bois xat aynan o'ziga
jo'natilganiga sira shubha yo'q edi. «Janob G.Potterga, Surrey
grafligi, Littl Uinging shahri, Tis ko'chasi, to'rtinchi uy,
zinapoya ostidagi qaznoq», deb yozilgandi xatjild ustiga.

Og'ir va qalin xatjild sariq pergament qog'ozdan yasalgan
bo'lib, manzil yashil siyohda yozilgandi. Xatjild ustida marka yo'q
edi.

Garri titragan qo'llari bilan xatning orqasini o'girdi va yelimi
qizil tamg'ada bezalib, muhrlanganini ko'rdi, tamg'ada sher, burgut,
bo'rsiq va ilon, o'rtasida esa katta «X» harfi tasvirlangan edi.

- Hoy bola, qani,
tezroq qimirla! -
o'shqirdi oshxonadan
Vernon amaki. -
N a m u n c h a
i m i l l a y s a n ?
Xatlarning ichida
portlatadigan modda
yo'qmi deb tekshir-
yapsanmi?

Vernon amaki o'z
hazilidan o'zi nasha



Bizning tarjima

qilib, qah-qah urib kuldi.

Garri hali ham xatni tomosha
qilganicha oshxonaga qaytdi. U
Vernon amakiga hisob varag'i
solingan xatjild va otkritkani berdi,
borib joyiga o'tirdi va sariq xatjildni
ohistalik bilan ocha boshladi.

Vernon amaki o'z xatjildini shartta
yirtib, ichidan hisob varag'ini oldi,
norozi ohangda xirillaganicha
otkritkaga nazar sola boshladi.

- Marj betob bo'lib qolibdi, -
Petunya xolaga xabar yetkazdi u. -
Qandaydir mahalliy ekzotik taom
yegan ekan va...

- Dada! - birdan qichqirib dedi
Dadli. - Dada, Garri ham nimadir
olibdi!

Garri xuddi xatjild kabi pergament
qog'ozda yozilgan xatni endigina
ochay deb turganida, Vernon amaki
uning qo'lidan qog'ozni yulqib oldi.

- Bu menga tegishli! - isyon ko'tardi Garri
qog'ozni tortib olishga urinib.

- Qiziq, senga kim xat yozarkin? - Vernon
amaki xatni ochayotib unga bepisand nigoh tashlab
xirilladi. Birdan uning qip-qizil basharasi yashil tusga
kirdi, bu jarayon svetofordagi ranglar o'zgarishiga
nisbatan tezroq yuz berdi. Biroq, bu bilan tugama-
gandi. Bir necha soniyadan keyin uning afti xuddi
qurigan sulni bo'tqasi kabi kulrang-oqish tusga kirdi.

- P-P-Petunya! - duduqlanib nafasi ichiga kirib
dedi u.

Dadli otasidan xatni tortib olishga intildi, ammo
Vernon amaki xatni baland ko'tardi. G'iybat va
mish-mishlarga nihoyatda o'ch Petunya tezda yetib
kelib, eridan maktubni yulqib oldi-da, birinchi satrini
o'qidi. Hammaga u hoziroq hushidan ketadiganday
tuyuldi. Xola go'yo nafas yetishmay o'layotganday
bo'ynini mahkam changallaganicha havoni ichiga
simirdi.

Gulchehra SA'DULLAYEVA
tarjimasi

Davomi bor

«Janob G.Potterga,
Littl Uinging shahri, Tis ko'chasi,
to'rtinchi uy, zinapoya ostidagi
qaznoq»



Ammo, ba'zi sportchi o'rtoqlaringiz bu yilgi ta'til chog'ida ancha toliqdilar. Nima uchun, deysizmi? Axir ular Xitoy poytaxti Pekin shahrida o'tadigan XXIX yozgi Olimpiada o'yinlarining xalqaro festivaliga tayyorgarlik ko'rish bilan band bo'ldilar-da.

ularning murabbiyi xalqaro toifadagi hakam Olim aka Haitov shogirdlari haqida iliq so'z aytishga shoshildi:

– Nasib qilsa, 22-avgust kuni Pekin shahrida bo'lamiz. Hasanni tanlaganimizning boisi, u Husandan kam emas. Qolaversa, Jobir Choriyev bilan Hasan

sentabrdan 6-oktabrgacha Koreyaning Pusan shahrida o'zbek milliy kurashi bo'yicha bo'lib o'tadigan xalqaro festivalga boradi. Bu nufuzli musobaqada dunyoning 100 ga yaqin davlatidan yosh polvonlar qatnashishadi.

Mashg'ulotlarda jiqqa terga botgan Hasan va Husanga havasimiz keldi.

– Mashg'ulotlardan charchamayapsizlarmi?

– Biroz charchadik. Chempion bo'lish mashaqqat ekan. Xorijga chiqyapmiz. Ularning mahoratlarini ko'ryapmiz. Dunyo kezayotganimizdan xursandmiz, – deydi ular.

Bolalar, ko'rdingizmi, tengdoshingiz Hasan va Husan To'xtapovlar kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari. Ular poytaxtimizdagi «Pahlavon» sport klubiga qatnaydilar. Hamza tumanida joylashgan 161-sonli «Shturm» harbiy sport maktabining 6-sinf o'quvchilari. Shu kungacha Husan 10 ta, Hasan esa 9 ta medal sohibi ekanligi kishini quvontiradi. Bu g'olib bolalar yuksak cho'qqilarga intilib, yuraklaridagi o'zgacha harorat, muhabbat bilan dunyo ahlini lol qoldirishlariga ishonamiz.

Chindan ham ular g'olib bolalar. Ertangi yuksalishlar cho'qqisiga intilayotgan, yorug' yulduz bo'lib maydonlarda chiniqayotgan, yuraklarida o'zgacha harorat, muhabbat bilan yashayotgan pahlavon bolakaylar bir kun kelib dunyo ahlini lol qoldirishiga ishonamiz.

QAYSI BIRINGIZ HASAN?



Yozgi ta'til bolajonlarning miriqib dam olishlari uchun eng qulay fursat onlaridir. Ayni kunlarda esa ko'pgina tengdoshlaringiz tog'lar bag'rida joylashgan oromgohlarda dam olmoqdalar.

bir xil vaznda bellashishadi. Ular qatorida viloyat klublaridan Gulmira va Sadoqat ham festivalda ishtirok etishadi. Husan 5 karra mamlakat chempioni bo'lsa, Hasan 2 karra mamlakat chempionidir. Pekinda bo'ladigan festivalga borishdan maqsadimiz kurash taqdimotida ishtirok etish. Ta'til Hasan va Husan, ularning do'stlari uchun chindan-da mas'uliyatli bo'ldi. Ular oromgohlarda dam olish o'rniga maydonlarda tinimsiz mashg'ulotlarda bo'ldilar. Husan 30

Biz Pekinga ketishga jiddiy tayyorgarlik ko'rayotgan polvon bolalar bilan uchrashdik. 12 yoshlar chamasidagi egizaklarning kurash mashg'ulotlarini kuzatib zavqlandik:

– Qaysi biringiz Hasan? – deya so'radik. – Men Hasanman, – dedi to'lagina bolakay. – Husan mendan kuchliroq bo'lsa-da, Xitoyga men boryapman.

Nega, deb so'rab ulgurmasimizdan

klublaridan Gulmira va Sadoqat ham festivalda ishtirok etishadi. Husan 5 karra mamlakat chempioni bo'lsa, Hasan 2 karra mamlakat chempionidir. Pekinda bo'ladigan festivalga borishdan maqsadimiz kurash taqdimotida ishtirok etish. Ta'til Hasan va Husan, ularning do'stlari uchun chindan-da mas'uliyatli bo'ldi. Ular oromgohlarda dam olish o'rniga maydonlarda tinimsiz mashg'ulotlarda bo'ldilar. Husan 30

Millionlar o'yini bo'lgan futbolni, ayniqsa, bolalar sevib o'ynashadi. Yurtimizda futbolni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi hukumatimiz qarorlarida ham o'zbek futbolining kelajagi haqida bitilgan.

Qibray maktabi yoz bo'yi bo'sh qolmadi. U yerda har kuni mahallalararo va klublararo musobaqalar tez-tez tashkillashtirilib turildi. 1974-yilda tashkil topgan ushbu sport maktabida bugun 525 nafar sportchilar tahsil olmoqda. Ularga Anvar Boymatov, Oleg Shabayev, Nuriddin Muhammadov kabi talabchan murabbiylar saboq berishadi. Bu maktabda tahsil olgan futbolchilar bugungi kunda respublikamizning qator jamoalarida to'p surmoqdalar. Jumladan, Toshkentning «Traktor» jamoasi o'yinchilari Abdujamil Abdug'aniyev, Ulug'bek Ibragimov, Dilshod Nuroxunov, Maqsud Mirzamuhammedov, A'lo Oripov, Eldor Shayhutdinov,

Navoiyning «Zarafshon» va «Qizilqum» klublarida to'p surgan Vitaliy Kuznesov, mini futbol ustasi Jasur Sodiqov aynan 2-futbol maktabining tarbiyalanuvchilari hisoblanishadi. Ularning chiroyli o'yinlaridan ko'p bora bahramand bo'lganmiz.

Qibray maktabining o'quvchilari erishayotgan muvaffaqiyatlarida o'sish bor. Yosh futbolchilarning musobaqalarda qatnashishi uchun Qibray tuman xalq ta'limi bo'limi va bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining Toshkent viloyati filiali, «Yoshlik» ko'ngilli sport jamiyatining viloyat bo'limi, «Bou Ltd» o'zbek-koreys qo'shma korxonasi maktab o'quvchilarining doimiy homiysi.

Maktab futbolchilari «Umid nihollari» sport musobaqasining viloyat bosqichida munosib o'rinnlarni egallab kelishadi. Joriy


yilda «Futbolimiz kelajagi» mahallalararo an'anaviy musobaqasining viloyat final bosqichiga yo'l olgan Qibray futbolchi bolalarining 9 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar «Yoz-2008» sport tadbirlarining tuman bosqichlaridan viloyat bosqichiga chiqdilar.

Toshkent viloyati futbol federatsiyasi tashabbusi bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy Mahmud Rahimov xotirasiga bag'ishlangan «Bolalar ligasi» musobaqasida 9-10 yoshli bolalar mintaqaviy guruhda birinchi o'rinni egallab, final yo'llanmasiga ega bo'ldilar. 13-14 yoshli futbolchilar esa o'z guruhlarida ikkinchi o'rinni band etdilar.

– Yodgor Noraliyev, Dmitriy Chesnokov, Ravshan Sahobiddinov, Iskandar Zoitov, Mahmudjon To'laganov kabi izlanuvchan murabbiylar mashg'ulotlarda shogirdlarini pishitmoqdalar. Tumandagi 8 ta o'rta maktab maydonlarida o'ikaziladigan mashg'ulotlarda 22 ta maktab o'quvchilari ushbu murabbiylardan futbol sirlarini o'rganmoqdalar. Mashg'ulotlarni Qibraydagi «Qibray», «Do'rmon», «Yoshlik» o'yingohlarida hamda o'rta maktabdagi maydonlarda o'tkazamiz, – deydi 2-sonli BO'FM direktori Nuriddin Muhamedov. – Bugun murabbiylar oldiga bolalarni kuchli futbolchilar qilib tarbiyalashdek mas'uliyatni yuklaganmiz. Niyatimiz futbol tarbiyalanuvchilarimiz mamlakat terma jamoalari safidan munosib o'rin olishsa... Qolaversa, o'quvchilarimiz uchun sport anjomlari, liboslari, to'plar yetkazib berilsa, boshimiz ko'kka yetardi...

Darhaqiqat, Qibray futboli o'z an'alariga ega. Bu yerda futbolni juda sevishadi. Demak, direktorning ezgu niyatlari bir kun albatta ro'yobga chiqishiga ishonamiz. Negaki, maydonlarda bolalar tinim bilmay to'p quvlayaptilar.

Ma'mura MADRAHIMOVA



SPORT XABARLARI

«Pekin – 2008»

BIRINCHILIKKA INTILAYOTGANLAR

Xitoyning Pekin shahrida boshlangan XXIX yozgi Olimpiada o'yinlarida 58 nafar sportchilarimiz yurtimiz sharafini himoya etishmoqda.

Sportning yengil atletika, suzish, dzyudo, boks, erkin kurash, taekvando, WTF, sport gimnastikasi, baydarka va kanoeda eshkak eshish, o'q otish, og'ir atletika, tennis turlarida bahslar qizg'in o'tmoqda. Sportchilarimizning maqsadi yurtga oltin medal bilan qaytish. Biz ham ularni bu niyatlariga qo'shilamiz.



Beijing 2008

UCHINCHI O'RIN, CHAKKI EMAS...

Eronning Tehron shahridan



yurtimizning umidli shaxmatchilari qaytib keldilar. Ular 8

yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan qizlar va o'g'il bolalar o'rtasidagi shaxmat bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida ishtirok etishdi.

Unda farg'onalik Nafisa, sirdaryolik Sarvinoz, toshkentlik Ortiqjon kumush medalni qo'lga kiritishdi. Roman va Gulruhsor esa to'rtinchi, beshinchi o'rinni band etishgani bois, yosh shaxmatchilarimiz Osiyo chempionatida umumjamoa hisobida uchinchi o'rinni zabt etdilar.

Demak, natija chakki emas...

SPORT KOSHONASI BOR...

Namangan viloyatining Namangan tumanida yangi sport koshonasi ish boshladi. Bu mas-



kan naman-ganlik o'smirlar uchun y o s h l a r y i l i d a g i munosib tuhfa deya e'tirof etilmoqda. Endilikda qishloqning sportsevar bolalari sportning karate-do turida muntazam shug'ullanib, respublika chempionatlarida muntazam qatnashadilar. Axir ularning chiroyli sport koshonasi bor...

BUXOROGA BORAMAN

Bolalarning yozgi ta'til kunlari ona yurtimizda qut-baraka, pishiqchilik mavsumi bilan uyg'unlikda davom etayotgani yana-da ko'ngilli, sarguzashtlarga boy bo'lmoqda. Nega deganda, ta'til shunchaki bo'sh vaqt emas, balki o'quvchilarning ham jismonan, ham aqlan quvvat to'playdigan, miriqib dam olib, yayrab kamolga yetadigan bebaho onlaridir. Barcha ota-onalar ham bolalarini oromgohlarda dam oldirib, sayr-u sayohatga olib chiqishga imkonlari yetmaydi. Ammo barcha bolalarning yozni zavqli o'tkazishga, yayrab, miriqib hordiq chiqarishga, ta'tilning har bir kunini bolalarcha beg'uborlik, shod-u xurramlikda o'tkazishga haqlari bor. Negaki, bolalarga qilingan saxovat, mehr-oqibat bir kunlik, bir oylik yoki bir yillik bo'lmay, umrga, ezgulikka, millat, Vatan kelajagiga dahldordir.

Alijon HAMIDOV, Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 2-umumta'lim maktabi o'quvchisi:

– Men uchun eng sevimli fasl – yoz. Unda miriqib o'ynayman, turli sayr-u sayohatga chiqaman, do'stlar ortiraman, xullas, yayrayman. Men ham har yili ta'tilni o'zim tug'ilib o'sgan Savrak qishlog'ida o'tkazdim. Bu yilgi yozda onajonim katta bo'lib qolgan, turli to'garaklar-u sport musobaqalariga qatnashib, bilim va mahoratimni oshirishim zarurligini tushuntirdilar. Oromgohdan qaytib buvimnikiga borib, ularga sabzavotlarni yig'ib terishga yordamlashdim. Yaqinda tarixi asrlarga tutashib ketgan Buxoro shahriga sayohatga boraman.

Shohjahon RAUPOV tayyorladi

BUQOQ KASALLIGI

Yod tanqisligi bolalarni aqliy, jismoniy, jinsiy rivojlanishdan orqada qolishiga olib keladi. Bunday bolalarni bo'yi past, vazni kichik bo'ladi va o'z navbatida qon tomir, mushaklar, teri, soch tomiriga va bezlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xo'sh, buqoq paydo bo'lmasligi uchun nima qilish kerak? Birinchidan, kundalik taomlar tayyorlashda faqat yodlangan osh tuzini ishlatish.

Agarda tomog'ingiz shishib og'riq paydo bo'lsa, holsizlik sezilsa, qalqonsimon bezni kattaligi ko'zga tashlansa, darhol o'z poliklinikangizdagi pediatr-endokrinologga murojaat qiling. Shifokor tavsiya qilgan dori-darmonlarni ichmasdan qoldirmang.

Shu bilan birga, dengiz mahsulotlari, ya'ni dengiz karami, baliq, konservalarni doimiy ravishda iste'mol qilishingiz foydalidir. Buqoq kasalligi bo'lmasligi uchun antistrumin degan preparat haftada bir marta ichilsa, bu sizga kundalik yodga bo'lgan ehtiyojni to'la-to'kis qoplaydi. Bunga o'xshash dorilar dorixonalarda mavjud. Bular yodid 100, yodamarin 100, yodoroks va hokazo, faqat ularni kuniga bir donadan eritib iste'mol qilinsa maqsadga muvofiqdir. Ko'proq xurmo, yong'oq iste'mol qilib, buqoqdan qutilsa bo'ladi. Shuning uchun faqat shifokor tavsiya qilgan preparatlari bilan davolanish kerak.

Osh tuzi
Yodlanmagan
Arzon

Osh tuzi
Yodlangan
Qimmat, lekin
sifatli

*T.IBRAGIMOV,
terapevt endokrinolog,
tibbiyot fanlar doktori, professor*

**BUGUNNING
«YANGI AVLOD»LARI**

alohida mehr qo'yib ulg'aydi. Ayni paytda bolalar san'at maktabining fortepyano yo'nalishida 5-sinfni tamomladi.

Hasan tasviriy va amaliy san'atga juda qiziqadi.

Sevimli fani: ona tili, chizmachilik.

Bu galgi g'olibimiz Farg'ona shahridagi 1-maktabning 9-sinf o'quvchisi Hasan Maychiyev. Qahramonimiz bolaligidan san'atga

Yoqtirgan bayrami: Yangi yil.

Sportning shashka turiga qiziqadi.

Bo'sh vaqtda rasm chizadi va fortepyanoda turli kuylar chalishni yoqtiradi. Kelajakda o'zi sevgan sohani davom ettirib, arxitektorlik kasbini egallash istagida.

2007-yil sahifamiz qahramoni uchun sermahsul bo'ldi. Unga ko'pgina yosh iste'dodli yoshlarning orzusi bo'lgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali g'olibligi nasib etdi.


– Festivaldagi g'olibligim mening oldimga yana-da katta rejalar qo'yadi, menga bildirilgan ishonchni oqlashga va berilgan imkoniyatdan oqilona foydalanishga harakat qilaman, – deydi Hasan Maychiyev.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

**OZODLIKKA CHIQQAN QUSHLAR**

Bekatda avtobus kutib turgan edim. Bir odam qafasga solingan bir juft qushchani sotib yurganiga ko'zim tushdi. O'tib ketayotganlardan biri qush sotayotgan odamdan:

- Qushingiz necha pul? – deb so'rab qoldi.
- Donasi bir yarim ming so'mdan, – dedi sotayotgan odam.
- Ularni men sotib olaman.
- Sotuvchi qushlarni olib kelgach:
- Qafasingiz bormi? – deb so'radi.



– Qo'lmda olib ketaveraman, – dedi qushlarni sotib olgan xaridor pulini sanab berarkan. So'ngra, hammani hayratda qoldiradigan ish qildi: sotib olgan qushlarini uchirib yubordi.

– Nimaga uchirib yubordingiz? – dedi sotuvchi nafasi ichiga tushib.

– Sizga nima aloqasi bor, pulingizni berdimmi, endi qushlar meniki, nima qilsam qilaman, – javob berdi xaridor.

– Gapingiz to'g'riku-ya, lekin men uni ne azoblar bilan qafasga tushirgandim-da...

– Sizni ham birov qafasga tushirib, qamab boqsa yaxshimi?

– Bular qush-ku, – bo'sh kelgisi kelmadi sotuvchi.

– Qush bo'lsa ham tirik jonzot, erkin yashagisi keladi, – dedi xaridor.

– Sovuqda ochlikdan o'lib qolishlari mumkin. Men ularga ovqat berib turardim...

– Siz o'z rizqingizni terib yuribsiz-ku, bular ham rizqini terib yashaydi, ammo asosiysi, ular ozodlikka erishdi, – deya yo'lida davom etdi xaridor.

Muzaffar AHMEDOV

SOAT QACHON PAYDO BO'LGAN?

Vatanimizda qadimdan vaqtni belgilashgan.

Birinchi temir soat 578-yilda Vizantiyada yasalgan. Uning faqat bitta kagiri bo'lgan.


1404-yilda Moskva Kremilida birinchi minora soati qurildi.

Birinchi cho'ntak soati Yevropada yasaldi.

Ustalar Alisher Navoiyga sandiqchali soat yasab berganlar. Sandiqcha ustidagi odam harakatga kelib, musiqa chalib, vaqtni ko'rsatgan.

1657-yilda Holland olimlari soatga mayatnik o'rnatdilar. Ilgari soatlar mayatniksiz ishlab, 15 daqiqa ilgari ketar yo orqada qolardi.

Xullas, qo'lingizdagi soat uzoq izlanishlar natijasida mukammal holatga kelgan edi.



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHAYHZODA
Navbatchi:
Axtamqul KARIM

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassomlar:
Feruz MATYOQUBOV,
Bahrom KALONOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 21527
Buyurtma N: J 5763

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

